

**O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARINING
AHVOLI VA O‘ZGARISHLAR (1946–1991 YILLAR)****СОСТОЯНИЕ И ИЗМЕНЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ
ТЕХНИКИ В УЗБЕКСКОЙ ССР (1946–1991 ГГ.)****THE STATE AND CHANGES OF AGRICULTURAL MACHINERY IN
THE UZBEK SSR (1946–1991)****Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi***O‘zbekiston tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi*Gulhayoxasanboyeva29@gmail.com

+99891 1102903

Annotatsiya: Ushbu maqola 1946–1991 yillar davomida Sovet Ittifoqi tarkibidagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi texnikalarining holati, texnik parklarning rivoji, texnik xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi, traktorlar va paxta terish mashinalari parkining kengayishi, mexanizatsiya jarayonining hududlar kesimidagi farqlari haqida keng qamrovli ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, Respublika qishloq xo‘jaligi texnikalarining o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet davri, O‘zbekiston SSR, qishloq xo‘jaligi texnikasi, mexanizatsiya, traktorlar, kombaynlar, texnik xizmat.

alkkinchi jahon urushidan keyingi davr O‘zbekiston SSR agrar tarmog‘i uchun texnik inqiroz davri bo‘ldi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mashinalarining asosiy qismi frontga safarbar etilganligi va mavjud texnikaning katta qismi esa eskirgan yoki yaroqsiz holga kelib qolganligi vaziyatni yetarlicha yaxshilanishiga olib kelmadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1946 yilda traktorlar urushdan avvalgi darajaning atigi 62 foizini tashkil etgan va ulardan 40 foizi kapital ta’mir talab qilgan². Bu holat agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilmasligiga va mehnat unumdorligining keskin pasayishiga sabab bo‘lgan.

1948-yili “Tashselmash” zavodi paxta terish mashinalarining dastlabki partiyasini ishlab chiqardi. Oradan bir yil o‘tgandan keyin “Tashavtomash” zavodi ishga tushirilib, traktorlar, paxta terishga moslashtirilgan mashina va traktor pritseplarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [5;106]. Mazkur davrda sovet hukumati tomonidan O‘zbekistonga yangi DT-54, S-80 rusumli traktorlardan iborat texnika partiyalari yuborildi. Biroq texnika yetishmasligi baribir o‘z ta’sirini ko‘rsatib, ko‘plab kolxozlarda ekin maydonlarini haydash qo‘lda amalga oshirilgan. Bu holat hosildorlikning pasayishiga va ish unumdorligiga ta’sir ko‘rsatgan. 1950–1960 yillarda Sovet Ittifoqi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashni keskin kuchaytirdi.



O'zbekistonga har yili 1 800–2 200 ta traktor, 300–600 ta paxta terish mashinasi va g'alla kombaynlari yetkazib berildi. 1959-yili respublika kolxoz va sovxozlarida 6800 ta terim mashinasi ishladi [6;217]. Biroq, markazlashgan taqsimot tizimi real ehtiyojlarni hisobga olmaganligi tufayli, 1947 yilda O'zbekistonga yetkazib berilgan 412 ta traktor mavjud ehtiyojning 12 foizini ham qoplamagan³. Paxtachilik yetakchi sohaga aylangan bo'lsa-da, uskunalar yetishmovchiligi tufayli dalalarda qo'l mehnati ulushi yuqori bo'lib qolavergan. 1950–1960-yillardan boshlab Sovet hukumati qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalash darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. 1958 yilga kelib respublika xo'jaliklarida 24 mingdan ortiq traktor va 6000 dan ziyod paxta terish mashinasi mavjud bo'lgan bo'lsa-da⁴, MTS tizimining tugatilishi texnik xizmat sifati va mas'uliyatini xo'jaliklarga yukladi. Ta'mirlash ustaxonalari va malakali mexanizatorlarning yetishmasligi texnikaning muddatsiz eskirishiga olib keldi.

Garchi 1960-yillarda mexanizatsiya jarayonining yangi bosqichi boshlangan bo'lsada, respublikada viloyatlar bo'yicha texnika ta'minotidagi tafovutlarni bartaraf etilmadi. Masalan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 1 gektar paxta maydoniga 0,85 dona traktor to'g'ri kelgan bo'lsa, Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 0,41 donadan oshmagan 1965–1985 yillar davomida texnika son jihatdan ko'paygan bo'lsa-da, uning sifat darajasi, servis tizimining rivojlanishi orqada qolgan. Ya'ni, 1975 yilda texnikaning 32 foizi kapital ta'mirga muhtoj bo'lgan, paxta terish mashinalarining samaradorligi esa 40–45 foiz atrofida bo'lgan. Texnikaning buzilishiga dala relyefi, egatlar sifati, meliorativ tayyorgarlikning pasayishi ham sabab bo'lgan. XX asrning 80-yillariga kelib, texnik park jiddiy eskirib qolganligi sezildi. Respublikaning barcha hududlarida mavjud traktorlarning atigi 57,8 foizi texnik jihatdan ishga yaroqli, qolgan qismi kapital ta'mirga muhtojligi qayd etildi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston ASSRda texnik ta'minot yanada og'ir bo'lgan. Shuningdek, ekologik inqiroz — tuzlashish, sho'rlanish, chang bo'ronlari texnikalar xizmat muddatini 2–3 barobar qisqartirgan. Natijada, sovet davrida qishloq xo'jaligi texnikalarining rivoji bosqichma-bosqich kuchayib borgan bo'lsa-da, texnik xizmat tizimining sustligi, ehtiyot qismlar tanqisligi va iqtisodiy inqiroz texnik parklarga katta zarar yetkazgan. Bu holat paxtachilikda hosildorlikning pasayishiga, ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keldi. Keyingi yillarda qishloq xo'jalik texnikalarining sifati emas son jihatidan ko'payishiga e'tibor berildi. Jumladan, 1985-yilda respublika kolxoz va sovxozlarida 189 mingta traktorlar, 37 mingta paxta terish mashinalari va boshqa texnikalar bor edi [1;438].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikasi rivojida miqdoriy o'sish bo'lgan bo'lsa-da, sifat jihatidan izchil modernizatsiya amalga oshmagan. Markazlashgan boshqaruv, texnik servisning zaifligi, ehtiyot qismlar taqchilligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi texnika samaradorligiga to'sqinlik qilgan. Mustaqillikdan keyingi modernizatsiya jarayonlari ushbu muammolarning tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev M. O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi. – T: Nurafshon biznes, 2024.
2. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: Extremum Press. – 2011.
3. Murtazoyeva R. O'zbekiston tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Razzoqov. A. O'zbekiston paxtachiligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1994.
5. Rajabov Q. Zamonov A. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). – T: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2017.
6. Yaqubova D. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari. – T.: Tafakkur avlodi, 2021.
7. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi tom. – Toshkent, 1971.
8. Xasanboyeva G. The Role of MTS (Machine-Tractor Station) in Agriculture after the Second World War. Exellencia international multi-disciplinary journal of education. Volume 2. Issue 11.2024. - 230-232 bet